



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini..... | 10 |
| <i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i> | |
| The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System | 15 |
| <i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i> | |
| Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish | 21 |
| <i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i> | |
| Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati..... | 25 |
| <i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i> | |
| Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari | 30 |
| <i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i> | |
| Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati..... | 33 |
| <i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari..... | 37 |
| <i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i> | |
| Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish | 41 |
| <i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i> | |
| Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni | 45 |
| <i>Sh. S. Kurbanova</i> | |
| Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar | 49 |
| <i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i> | |
| Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов | 53 |
| <i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i> | |
| Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari..... | 57 |
| <i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i> | |
| Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ... | 61 |
| <i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i> | |
| Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari..... | 66 |
| <i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i> | |
| Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish | 69 |
| <i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i> | |
| Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri..... | 76 |
| <i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i> | |
| Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari | 81 |
| <i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i> | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi..... | 84 |
| <i>Maripova N. X.</i> | |
| Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi | 88 |
| <i>Nurova Malika Abduzairovna</i> | |



| | |
|---|-----|
| Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development | 92 |
| <i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i> | |
| Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari | 97 |
| <i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i> | |
| Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati | 100 |
| <i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i> | |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari | 105 |
| <i>X. Sh. Ochilova</i> | |
| Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi | 109 |
| <i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i> | |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari | 112 |
| <i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i> | |
| Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari | 117 |
| <i>Arziyeva Visola Namozovna</i> | |
| Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari | 121 |
| <i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i> | |
| Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili | 125 |
| <i>Sharopova Durdona Azim qizi</i> | |
| Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari | 129 |
| <i>Tashmatova Gulzoda</i> | |
| Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari | 133 |
| <i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i> | |
| Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni | 137 |
| <i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i> | |
| Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili | 142 |
| <i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i> | |
| Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish | 146 |
| <i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i> | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari | 151 |
| <i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i> | |
| Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish | 156 |
| <i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish | 161 |
| <i>M. S. Achilova</i> | |
| Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi | 165 |
| <i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i> | |
| PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish | 169 |
| <i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari | 173 |
| <i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i> | |
| O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari | 178 |
| <i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i> | |
| O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili | 181 |
| <i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i> | |

| | |
|---|-----|
| Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech..... | 184 |
| Turumbetova Aygul Yusupbaevna | |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi..... | 189 |
| Ummatkulova Sayyora Shovkatovna | |
| Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish..... | 191 |
| Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov | |
| Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi..... | 195 |
| Ermatova Robiya Bekjonali qizi | |
| The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education..... | 199 |
| Ismailova Shaira Ferdausovna | |
| Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners..... | 204 |
| Maqsudova Gulnoz Olimovna | |
| Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms..... | 208 |
| Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi | |
| Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching..... | 212 |
| Sharipova Muhabbat Erkinovna | |
| Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili..... | 216 |
| Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich | |
| Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv..... | 222 |
| Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li | |
| O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili..... | 227 |
| Yuldashova Dilafuz Shavkatovna | |
| Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida..... | 229 |
| Safarova Madina Azamat qizi | |
| Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности..... | 233 |
| Аскарлова Гулрух Оринбасаровна | |
| Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века..... | 239 |
| Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб | |
| Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана..... | 242 |
| Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек | |

TALABALAR JAMOASIDA UCHRAYDIGAN NIZOLI VAZIYATLARNING DIAGNOSTIK TAHLILI

Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi
JDPU doktranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning kelib chiqish sabablari, ularning psixologik xususiyatlari va diagnostik tahlili o'rganilgan. Shuningdek, nizolarni aniqlash usullari hamda ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: talabalar jamoasi, nizoli vaziyat, konflikt, diagnostika, shaxslararo munosabat, psixologik muhit.

Abstract: This study examines the causes of conflict situations in student communities, their psychological characteristics and diagnostic analysis. Also, methods for identifying conflicts and recommendations for their prevention have been developed.

Key words: student community, conflict situation, conflict, diagnostics, interpersonal relations, psychological environment.

Аннотация: В данном исследовании рассматриваются причины конфликтных ситуаций в студенческих сообществах, их психологические характеристики и диагностический анализ. Также разработаны методы выявления конфликтов и рекомендации по их предотвращению.

Ключевые слова: студенческое сообщество, конфликтная ситуация, конфликт, диагностика, межличностные отношения, психологическая среда.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi talabalarning ilmiy bilimlaridan tashqari ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratmoqda. Talabalar o'rtasidagi nizolar, asosan, ularning shaxsiy va guruhiy munosabatlarida yuzaga keladi, bu esa ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ta'lim jarayonida talabalar o'rtasida yuzaga kelgan nizolarni to'g'ri boshqarish, ularni konstruktiv tarzda hal etishning o'рни beqiyosdir. Ziddiyatlarni boshqarishning metodik yondashuvlari talabalarga o'zaro hurmat va to'g'ri kommunikatsiya orqali muammolarni samarali bartaraf etishga yordam beradi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida oliy ta'lim tizimida talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Talabalar jamoasida sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirish, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash hamda yoshlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, talabalarning xarakteri, dunyoqarashi, qiziqishlari va ijtimoiy pozitsiyalaridagi farqlar sababli jamoada turli nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi tabiiy holat hisoblanadi.

Talabalar jamoasida uchraydigan nizolar ko'pincha shaxslararo tushunmovchiliklar, kommunikativ to'siqlar, emotsional zo'riqish, liderlik uchun kurash, guruh ichidagi ijtimoiy tengsizlik yoki o'zaro hurmatning yetishmasligi natijasida kelib chiqadi. Bunday nizolar talabalarning ruhiy holati, ta'limga bo'lgan motivatsiyasi hamda jamoaviy faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli talabalar orasidagi nizoli vaziyatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularning kelib chiqish omillarini diagnostik tahlil qilish va samarali profilaktik choralarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Mazkur maqolada talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning psixologik va pedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi, nizolarning asosiy sabablari hamda ularni diagnostika qilish usullari yoritiladi. Shuningdek, talabalarning konfliktga moyillik darajasi, kommunikativ ko'nikmalari va jamoaviy munosabatlarning nizolar shakllanishiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu mavzu ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Shunday olimlardan biri Kurt Levindir. Olim guruh ichidagi munosabatlar, liderlik va konfliktlarning paydo bo'lish sabablarini o'rgangan.

J. Moreno jamoa ichidagi shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish usullarini ishlab chiqqan. Ushbu diagnostik usullar shaxslarning guruhdagi o'zaro munosabatlarini hamda jamoadagi o'rnini o'rganishga qaratilgan.

L. Vigotsky ta'lim muhiti va ijtimoiy rivojlanishning shaxsga ta'sirini tahlil qilgan bo'lsa, Makarenko talabalar va yoshlar jamoasidagi tarbiyaviy munosabatlarni o'rgangan. Jamoaning yoshlar tarbiyasiga ta'siri masalalari hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi.

Talabalar jamoasidagi nizolar, shaxslararo munosabatlar, pedagogik psixologiya va konfliktologiya bo'yicha O'zbekistonda ham bir qator olimlar ishlagan. Aynan "Talabalar jamoasidagi nizoli vaziyatlar diagnostikasi" nomi bilan emas, lekin shu mavzuning tarkibiy qismlari bo'lgan ijtimoiy psixologiya, guruh psixologiyasi, ta'lim psixologiyasi va konfliktologiya bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda.

M. Vohidov O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi va pedagogik-ijtimoiy psixologiya yo'nalishiga katta hissa qo'shgan olim hisoblanadi. Olim o'z tadqiqotlarida shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy muhitning inson shaxsi taraqqiyotiga ta'siri masalalarini o'rgangan.

V. Karimova shaxslararo munosabatlar, yoshlar psixologiyasi, oila va ijtimoiy psixologiya bo'yicha ilmiy ishlari bilan ko'plab muammolarni o'rgangan va hozirgi kunda olimaning ilmiy asoslari asosida tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Talabalar jamoasidagi psixologik muhitni o'rganishda ishlari qo'llanib kelinmoqda.

Yana shunday olimlardan biri F. Abdurahmonov pedagogik va amaliy psixologiya yo'nalishlarida tadqiqotlar olib brogan bo'lsa, I. Xudoyberdiyev ta'lim va shaxs rivojlanishi masalalarini tadqiq qilgan.

Hozirda faol tadqiqotlar olib borayotgan olimlardan biri D. Muxamedova bo'lib, u umumiy va pedagogik psixologiya yo'nalishlarida ilmiy faoliyat olib bormoqda.

A. Seitov konfliktologiya, ijtimoiy munosabatlar va ziddiyatlar diagnostikasi bilan shug'ullanmoqda.

O. Otajonova ijtimoiy va pedagogik psixologiya yo'nalishlarida ilmiy faoliyat olib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini shaxs va jamoa faoliyatining psixologik qonuniyatlari, ijtimoiy psixologiya, pedagogik psixologiya hamda konfliktologiya nazariyalari tashkil etadi. Tadqiqot davomida shaxslararo munosabatlar va talabalar jamoasida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni o'rganishga doir ilmiy yondashuvlardan foydalaniladi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanish nazarda tutiladi:

- nazariy tahlil metodi - ilmiy adabiyotlar, maqolalar, dissertatsiyalar va me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish;
- kuzatish metodi - talabalar jamoasidagi o'zaro munosabatlar va nizoli holatlarni bevosita kuzatish;
- so'rovnomma metodi - talabalarning nizolarga munosabati va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash;
- suhbat (intervyu) metodi - talabalar va pedagoglarning fikrlarini o'rganish;
- psixodiagnostik metodlar - konflikt darajasi va shaxslararo munosabatlarni baholash;
- sotsiometriya metodi - jamoa ichidagi shaxslararo aloqalar tizimini aniqlash;
- matematik-statistik metodlar - olingan natijalarni foiz, jadval va diagrammalar orqali qayta ishlash.

Psixodiagnostik vositalar: K. Tomas va R. Kilmann tomonidan ishlab chiqilgan Thomas-Kilmann konflikt uslublari testidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nizolar mazmuni va ishtirokchilariga qarab bir necha turlarga bo'linadi. Talabalar jamoasida ko'proq shaxslararo nizo (ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasidagi kelishmovchilik), shaxsiy ichki nizo (shaxsning ichki qarama-qarshiliklari), guruh ichidagi nizo va guruhlararo nizolar uchraydi. Ularning kelib chiqishiga fikrlar turlicha bo'lishi, muloqotdagi tushunmovchiliklar, raqobat, manfaatlar to'qnashuvi va psixologik omillar sabab bo'ladi.

Uchrash chastotasi bo'yicha talabalar jamoasida eng ko'p uchraydiganlari shaxslararo nizolar hisoblanadi, chunki ta'lim jarayonida talabalar doimiy muloqot va hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Guruh ichidagi nizolar o'rta darajada, guruhlararo hamda ichki shaxsiy nizolar esa nisbatan kamroq uchraydi.

Talabalarning konfliktga moyillik darajasi ularning nizoli vaziyatlarga qanday munosabatda bo'lishi va ularni hal qilish usullarini ifodalaydi. Bu daraja shaxsning xarakteri, hissiy holati, muloqot madaniyati, temperament

xususiyatlari va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Talabalar orasida konfliktga moyillik past, o'rta va yuqori darajada namoyon bo'lishi mumkin. Yuqori moyillikka ega bo'lgan talabalar ko'proq bahs-munozaraga kirishadi, past moyillikdagi talabalar esa nizolardan qochishga yoki murosaga kelishga intiladi. O'rta darajadagi moyillik esa nizolarni muvozanatli va konstruktiv hal qilishga yordam beradi.

Emotsional holat talabaning hissiy kechinmalari, ruhiy barqarorligi va turli vaziyatlarga munosabatini ifodalaydi. Talabaning emotsional holati uning xulq-atvori, muloqoti va nizoli vaziyatlarga bo'lgan munosabatiga ta'sir ko'rsatadi. Salbiy hissiy holatlar, masalan, stress, asabiylik yoki tashvish nizolar paydo bo'lish ehtimolini oshirishi mumkin.

Kommunikativ kompetensiya esa shaxsning boshqalar bilan samarali muloqot qilish, o'z fikrini aniq ifodalash, tinglash va o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish qobiliyatidir. Kommunikativ kompetensiya yuqori bo'lgan talabalarda nizolarni tinch va konstruktiv hal qilish ko'nikmalari yaxshi rivojlangan bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar jamoasida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga asosan shaxslararo kelishmovchiliklar, muloqotdagi tushunmovchiliklar, fikrlarning mos kelmasligi, raqobat muhiti va individual psixologik xususiyatlar ta'sir ko'rsatadi. Olingan natijalar tahliliga ko'ra, ayrim talabalarda nizodan qochish strategiyasi ustun bo'lsa, boshqalarida raqobat yoki murosaga kelish uslublari ko'proq namoyon bo'ldi.

Tadqiqot yakunida talabalar jamoasida sog'lom psixologik muhitni shakllantirish, samarali muloqotni rivojlantirish va nizolarni konstruktiv hal etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlar ta'lim jarayoni va jamoa ichidagi ijtimoiy-psixologik muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi ko'pincha shaxslararo munosabatlar, muloqotdagi tushunmovchiliklar, individual psixologik xususiyatlar, fikrlar qarama-qarshiligi hamda ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi aniqlandi.

O'rganilgan nazariy manbalar va o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar jamoasidagi nizolarni o'z vaqtida aniqlash va diagnostika qilish ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Nizolarning sabablarini chuqur tahlil qilish va ularni konstruktiv yo'nalishda hal etish jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida talabalar o'rtasida samarali muloqotni rivojlantirish, o'zaro hurmat va hamkorlikni kuchaytirish, psixologik treninglar hamda profilaktik tadbirlarni muntazam tashkil etish zarurligi aniqlandi. Ishlab chiqilgan tavsiyalar talabalar jamoasida nizoli vaziyatlarning oldini olish va ularni samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, talabalar jamoasidagi nizoli vaziyatlarni diagnostik tahlil qilish ta'lim muassasalarida ijobiy psixologik muhitni yaratish va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Takliflar

Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning oldini olish va ularni samarali boshqarish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Talabalar o'rtasida sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.
2. Guruh a'zolari o'rtasida samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha trening va seminarlar tashkil etish tavsiya etiladi.
3. Talabalarning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.
4. Guruhlarda yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish lozim.
5. Konfliktli vaziyatlarni hal etish bo'yicha psixologik maslahat va amaliy mashg'ulotlarni muntazam tashkil qilish tavsiya etiladi.
6. Talabalarda o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish zarur.
7. Tyutorlar, pedagoglar va psixologlar hamkorligini kuchaytirish orqali nizoli vaziyatlarning oldini olish samaradorligini oshirish mumkin.
8. Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, jamoaviy tadbirlar va ijtimoiy loyihalarga jalb qilish jamoa birligini mustahkamlashga xizmat qiladi.
9. Talabalar orasida anonim so'rovnoma o'tkazib, nizolarning yashirin sabablarini aniqlash tavsiya etiladi.
10. Ta'lim muassasasida konfliktologiya va muloqot madaniyatiga oid ma'rifiy tadbirlarni muntazam o'tkazish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020. – 320 b.
2. Ernazarova G.O. Pedagogik konfliktologiya. – Toshkent: ZEBO PRINT, 2021. – 305 b.
3. Abdullayeva N.G., Ubaydullayeva D.U. Ijtimoiy psixologiya (Konfliktologiya). – Toshkent, 2020. – 239 b.
4. Qo'chqarova F.M. Pedagogik konfliktologiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021.
5. Akramova F. S. A., Vaxobova M. N. Talabalar jamoasida nizoli vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishda nizoni boshqarish uslublarining ahamiyati // "Zamonaviy ilm-fanda olim ayollarning o'rnini": respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2026-yil 11–12-fevral, Farg'ona shahri). – Farg'ona, 2026. – B. 393
6. Akhmedova M.T., Nurmatova I.T., Khurramova A. "Conflictology as an Important Tool in the Formation and Development of the Conflictological Culture of Future Medical Workers." International Journal of Formal Education, 2022, Vol.1(11), 21–26.
7. Turemuratova A.B., Djumabayeva G.S. "Causes of Pedagogical Conflicts. Pedagogical Situation that Aggravates Mutual Relations." Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 2024.
8. Hasanov Sh.Sh. "Conflictology: Current State and Development Prospects" 2025.
9. Saidov A.I., Eshquvvatov T.E., Isnonqulova N.I. Konfliktlar psixologiyasi. – Samarqand: SamDU, 2015.
10. Vaxobova M. N. Talabalar jamoasidagi nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish // Qo'qon davlat pedagogika instituti Ilmiy xabarlar. – 2025. – №8. – B. 48.
11. Vaxobova M. N. Talabalar jamoasida nizoli vaziyatlar va ularning pedagogik-psixologik determinantlari // International Conference Pedagogical Reforms And Their Solutions. – 2025. – Vol. 10, Issue 02.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.